O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYA TIZIMI VA UNING IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Ibragimov Aziz To’rayevich
Osiyo xalqaro universiteti
Shodiyeva. A. D.
BuxMTI 2-boshqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada moliya sohasi va moliya sektori tarkibi yoritilgan bo‘lib, uning ilmiy jihatdan qisqacha ta’rifi berib o‘tilgan.Maqolada, shuningdek, moliya sektorining ahamiyati va jamiyatdagi o‘zaro manfaatli pul oqimlari jarayoni o‘z aksini topgan.Bundan tashqari mazkur maqolada moliya munosabatlari va ularning mohiyati,moliya tizimi “mikro va makro” miqyosdagi moliya,sug‘urta va uning moliya tizimidagi o‘rni, soliqlar va ularning vazifalari, shuningdek davlat byudjeti,davlat moliyaviy rolini ko‘rib chiqish, tizimli va moliyaviy siyosatni ta’minlash, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy sohalar, milliy moliya tizimining ayrim tarkibiy va funksional xususiyatlarini baholash parametrlaridan foydalanish kabi muhum mavzularning keng tushuntirilishi bayon etilgan.Kalit so‘zlar:Moliya, moliya tizimi, moliyaviy siyosat, xalqaro moliya, sug‘urtaning ro‘li, soliqlar, davlat byudjeti.*

Kalit so‘zlar: *Moliya, moliya tizimi, moliyaviy siyosat, xalqaro moliya, sug‘urtaning ro‘li, soliqlar, davlat byudjeti.*

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi hukumati bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan izchiliqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Islohotlar strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining keng qamrovli dastaklarini o‘z ichiga oladi. Manashunday dastaklardan eng muhimlaridan biri-davlatning izchil moliyaviy siyosati va albatta moliyaviy tizimi hisoblanadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat moliyaviy siyosatini olib borish va iqtisodni moliyaviy tartibga solish muammolariga alohida e’tibor berilib kelinmoqda.Ushbu maqolada biz moliya tizimi va moliyaviy siyosatni izchil o‘rganish va turli sohalarda moliyaviy tizimning ro‘lini ko‘rib chiqamiz.Moliya iqtisodiyot doirasida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyidagi vazifalarni bajaradi:Ta’minlash: iqtisodiy jarayonlarni,loyihalar va tadbirlarni pul resurslari bilan ta’minlash va unga xizmat ko‘rsatish vazifasidan iborat.Taqsimlash: moliyaviy resurslarni hududlar va tarmoqlararo taqsimlash vazifasi hisoblanadi.Rag‘batlantirish: yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash jarayoni orqali, pul fondlarini tashkil qilish va sarflash mexanizmi orqali amalga oshiriladigan vazifadir.Nazorat qilish: moliyani ishlab chiqarish,taqsimlash va istemol ustidan nazorat qilish vazifasi sifatida qaraladi. Iqtisodiy jarayonlarning jadal sur’atlarda rivojlanishi,ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarining samarali amalga oshirilishi ko‘p jihatdan moliya sohasiga bog‘liqdir.Takror ishlab chiqarish

jarayonlarining barcha bosqichlarida pul asosiy vosita sifatida qatnashadi. Moliya iqtisodiyotning asosiy ustunlaridan biri desak adashmaymiz, chunki uning vositasida muayyan maqsadga yo‘naltirilgan pul mablag‘lari fondlari vujudga keltiriladi va ular iqtisodiyotni rivojlantirish va jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida taqsimlanadi. Avvalambor, moliya so‘zining ma’nosiga keladigan bo‘lsak, «Moliya» arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “pul mablag‘lari”ma’nosini anglatadi. Arab tilidagi “mol”, ya’ni “boylik, mulk; pul jamg‘armasi”, shuningdek, “moliyat”, ya’ni “pul mablag‘lari; soliq”so‘zlari ham moliyaga daxldordir. Lug‘aviy ma’nosijihatidan “moliya”so‘zi fransuzcha “finance”, lotincha “financia”va ruscha “finansi”so‘zlarining ekvivalenti yoki ma’lum ma’noda sinonimi hisoblanib, eng avvalo, “daromad”, “pul mablag‘lari”yoki “to‘lov”degan ma’nolarda ham ishlatiladi. Moliya davlatning vujudga kelishiva uning resurslarga bo‘lgan ehtiyojining rivojlanishi bilan doimiy (uzluksiz) tovar-pul munosabatlari sharoitida paydo bo‘ldi. Moliya-iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag‘laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tizimi sifatida qaraladi. Uning vositasida turli darajada pul mablag‘lari fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi. Moliya pul bilan bog‘liq munosabatlar bo‘lib,uning moddiy asosini pul tashkil qiladi, lekin u pul emas yoki pul bilan bir xil narsa-tushuncha emas. Moliya— markazlashgan va markazlashmagan maqsadlipul fondlarini hosil qilish, jamlash, taqsimlash va qayta taqsimlash yoki ishlatish yuzasidan paydo bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlarga aytiladi. Moliyaiqtisodiyotningpul sektorida yuzagakeladi va daromadlar asosida yuz beradi. Maqsadli pul fondlari —bu Moliya resurslari yoki Moliya ob’yektidir. Moliya sub’yekti shu fondlarni yaratish, taqsimlash va ishlatishda ishtirok etuvchilar, ya’ni korxonalar,turli xo‘jaliklar, xonadonlar, nodavlat jamoat tashkilotlari va davlat idoralaridan iborat. Moliya daromad hosil qilish va uni sarflashni anglatadi. Moliya iqtisodiy jarayon va tadbirlarni moliyaviy ta’minlash, ularga xizmat ko‘rsatish vazifasini bajaradi. Moliya daromad hosil qilish va uni sarflashni anglatadi. Daromadlar ilk bor, ya’ni birlamchi taqsimlanganda korxona, davlat va xonadon moliyasi yuzaga keladi. Bu o‘rinda birlamchi daromadlar hosil bo‘ladi, korxona moliya fondlarini tashkil etadi, ishlovchilar ish haqi oladi va bu xonadon daromadini hosil etadi, korxonalar byudjetga soliq to‘laydilar va bu davlat daromadini yuzaga keltiradi. Daromadlar ikkilamchi taqsimlanganda byudjetdan transferlar (to‘lovlar) va turli maxsus fondlar ajratiladi.Moliya tizimi -jismoniy shaxslar, hukumatlar va korxonalar o‘rtasida sodir bo‘ladigan kapital oqimlaridan iborat. Moliyaviy tizimning,asosan,to‘rtta komponenti mavjud: moliyaviy bozorlar, moliyaviy aktivlar, moliya institutlari va moliyaviy xizmatlardan iboratdir.Moliyaviy bozorlar -ular xaridorlar va sotuvchilarga qimmatli qog‘ozlar, aksiyalar va obligatsiyalar, turli xalqaro valyutalar va derivativlarni o‘z ichiga olgan moliyaviy vositalar bilan savdo qilish vositalarini taqdim etadigan har qanday joy yoki tizimni o‘z ichiga oladi.Moliyaviy

aktivlar -moliyaviy bozorlarda sotiladigan mahsulotlar moliyaviy aktivlar deb ataladi.Naqd pul, aksiyalar, obligatsiyalar, investitsion fondlar va bank depozitlari moliyaviy aktivlarga misoldir. Yer, mulk, tovarlar yoki boshqa moddiy aktivlardan farqli o‘laroq, moliyaviy aktivlar o‘ziga xos jismoniy qiymatga yoki jismoniy shaklga ega bo‘lishi shart emas. Aksincha, ularning qiymati ular savdo qiladigan bozordagi talab va taklif omillari, shuningdek, ularning risklilik darajasi bilan o‘lchanadi. Moliya institutlari -moliya institutlari investorlar va qarz oluvchilar o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradilar. Ular a’zolar va mijozlar uchun moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadi. U moliyaviy vositachilar deb ham ataladi, chunki ular omonatchilar va qarz oluvchilar o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradilar. Investorning jamg‘armalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita moliya bozorlari orqali safarbar qilinadi. Ular bozorlardan mablag‘to‘plashni va moliyaviy aktivlarga (depozitlar, qimmatli qog‘ozlar, kreditlar va boshqalar)ga yo‘naltirishni xohlaydigan tashkilotlarga xizmatlarni taklif qiladilar. Moliyaviy xizmatlar -aktivlarni boshqarish va majburiyatlarni boshqarish kompaniyalari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar. Ular kerakli mablag‘larni olishga yordam beradi, shuningdek, ular orqali iqtisodiy subyektlar samarali investitsiya qilinganligiga ishonch hosil qilishadi(masalan, bank xizmatlari, sug‘urta xizmatlari vainvestitsiya xizmatlari). Moliya tizimi darajasiga qarab ko‘plab tarkibiy qismlardan iborat. Kompaniya nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo‘lsak, moliya tizimi kompaniyaning moliyaviy faoliyatiga mos keladigan protseduralarni o‘z ichiga oladi.Bularga misolqilib, moliya, buxgalteriya hisobi, daromadlar, xarajatlar, ish haqi va boshqalarni keltirishimiz mumkin.Zamonaviy moliya tizimlarida pul, kredit va moliya ayirboshlash vositalari sifatida ishlatiladi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat moliyaviy siyosatini olib borish va iqtisodni moliyaviy tartibga solish muammolariga alohida e’tibor beriladi. Faoliyat jarayonida turli pul fondlari shakllanadigan va foydalaniladigan moliyaviy munosabatlar turli sohalarining majmui moliyaviy tizim deyiladi.Unga boshqacha ham ta’rif berish mumkin: davlat va korxonalarning pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish borasidagi shakl va metodlar tizimiga moliyaviy tizim deyiladi. “Moliyaviy tizim” tushunchasi keng ma’nodagi “moliya” tushunchasining taraqqiyoti natijasidir. Mamlakatda bozor islohotlarining amalga oshirilishi va prinsipial jihatdan butunlay yangi bo‘lgan iqtisodiy va moliyaviy siyosatning hayotga tatbiq etilishi moliyaviy tizimning sohalari va bo‘g‘inlariga nisbatan obyektiv ravishdayangicha yondashuvni taqozo etdi. Unga muvofiq ravishda, dastlab, moliyaviy tizim quyidagi ikki sohaga bo‘linadi. 1) davlat moliyasi va mahalliy moliya. 2) xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi. O‘z navbatida, moliyaviy tizimning har bir sohasi pul fondlari va daromadlarni shakllantirishning konkret shakllari va metodlariga bog‘liq ravishda bir necha bo‘g‘inlardan tashkil topadi. Masalan, davlat moliyasi va mahalliy moliya davlat byudjeti, byudjetdan tashqari davlat maqsadli fondlari va davlat krediti kabi bo‘g‘inlardan tashkil topgan hisoblansa, xo‘jalik

yurituvchi subyektlar moliyasi esa tijorat korxonalari va tashkilotlari moliyasi moliyaviy vositachilar moliyasi va albatta notijorat tashkilotlar moliyasi kabilar shular jumlasidandir. Moliyaviy tizimning alohida sohalar va bo‘g‘inlarga bo‘linishi YaIMni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlashda, daromadlarni shakllantirish va ulardan foydalanishda iqtisodiy munosabatlar subyektlarining bir-birlaridan farqli ravishda ishtirok etishi bilan belgilanadi.Moliyaviy siyosat -moliyaviy resurslarni jamlash, ularni davlatning o‘z funksiya va vazifalarini amalga oshirish uchun taqsimlash hamda ishlatish shakli va usullarida tizimli namoyon bo‘luvchi tadbirlar yig‘indisidir.Moliya siyosatining asosiy yo‘nalishlari -moliyaviy resurslarning imkon qadar yuqori hajmini aniqlash va ushbu manbalar doimiyligi va uzluksizligini ta’minlashdir, chunki moliyaviy resurslar potensiali barcha o‘zgarishlarning bazasidir. Moliya siyosatining muhim vazifasi -u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat rejasi yoki chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta’minlashdir.Moliya strategiyasi prinsiplari -korxonaga o‘z-o‘zini tashkil etishga qodir ochiq tizim sifatida qarash prinsipi; korxona operatsion faoliyati bazaviy strategiyalarini hisobga olish prinsipi; moliyaviy faoliyatni strategik boshqarishning tadbirkorlik stiliga maqsadli yo‘naltirish prinsipidir.Moliya yili -birinchi yanvardan o‘ttiz birinchi dekabr kuni oxirigachabo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oluvchi davr bu moliya yili sifatida qaraladi.Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlatning moliyaviy siyosatiga asoslanadi. Shuning uchun ham moliyaviy siyosat moliyaviy boshqaruv tizimida eng asosiy element hisoblanadi. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyatidir. Bu faoliyat davlatning u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta’minlashga qaratilgan. Ayrim hollardamoliyaviy siyosat davlatning o‘z funktsiyalarini bajarishi uchun moliyaviy munosabatlardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan davlat organlarining ma’lum bir faoliyati sifatida talqin qilinadi. Bunday talqin o‘zida bir necha xavfni mujassam etadi.Moliyaviy siyosatning amalga oshirilishini davlat tomonidan o‘z funktsiyalari va dasturlarini (uzoq, o‘rta vaqisqa muddatli) bajarish uchun moliyaviy resurslarni mobilizatsiya qilish (jalb qilish), ularni taqsimlash va qayta taqsimlashga yo‘naltirilgan davlat tadbirlarining majmui ta’minlaydi. Bu tadbirlarning orasida moliyaviy munosabatlarning shakllari va normalarini huquqiy reglamentatsiya qilish (tartibga solish) muhim o‘rin egallaydi. O‘z-o‘zidan moliyaviy siyosat yaxshi yoki yomon bo‘lishi mumkin emas. Uningyaxshi yoki yomon ekanligi jamiyatning (yoki uning ma’lum bir qismining) manfaatlariga qanchalik muvofiqligi va quyilgan maqsadlarga erishish hamda aniq vazifalarning echilishiga qanchalik ta’sir ko‘rsatganligi bilan belgilanadi.Xalqaro moliya —xalqaro moliyaviy resurslar majmuini va ularning harakatlanishini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Xalqaro moliya munosabatlari muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalqaro darajada shakllantirilgan moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish

jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Xalqaro moliya munosabatlari o‘ziga xalqaro valuta munosabatlari, xalqaro kredit munosabatlari, xalqaro investitsiya munosabatlari, xalqaro savdo munosabatlari, xalqaro soliq munosabatlari, xalqaro lizing munosabatlari, mamlakatlar to‘lov balansini boshqarish, xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalar kabi munosabatlarni qamrab oladi. Xalqaro moliya doimiy o‘zgaruvchan xalqaro pul tizimlarining holati va rivojlanishini, alohida mamlakatlar to‘lov balansiningo‘zgarishini, xalqaro moliya bozorlari, xalqaro moliyaviy korporatsiyalar xalqaro bank va investitsion faoliyatni namoyon etadi. Xalqaro moliya tizimining asosiy ishtirokchilari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: banklar, transmilliy korporatsiyalar, portfel investorlar va xalqaro rasmiy qarzdorlar. Xalqaro moliyaviy operatsiyalar alohida mamlakatlarning moliya tizimiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi kuch hisoblanadi. Xalqaro moliya o‘zida obyektiv asosga ega bo‘lgan moliyaviy munosabatlarni ifodalaydi. Xalqaro moliyaning moddiy asosi bo‘lib mamlakatlar o‘rtasida amalga oshiriladigan xalqaro moliyaviy oqimlar, jumladan, pul oqimlari —import qilingan mahsulot va xizmatlarning to‘lovlari hamda mahsulot va xizmatlar eksportidan kelgan valuta tushumlari, ushbu oqimlar xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasini ifodalashi mumkin, lekin ular turlimamlakatlarga tegishli bo‘ladi, shu boisdan mamlakatlar o‘rtasidagi pul oqimlari harakatini namoyon etadi.Sug‘urta –tabiiy ofatlar(zilzila , suv toshqini, yog‘in va boshqalar), har xil baxtsiz hodisalar ro‘y berishi natijasida ko‘rilgan zararni qoplashva boshqa pul qoplamalari to‘lash uchun maqsadli pul jamg‘armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi. Sug‘urta-ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog‘liqdir. Normal ishlab chiqarish jarayonining muhim sharti uning uzluksizligi va to‘xtovsizligi hisoblanadi. Sug‘urta tashkilotlarining moliyasi tabiiy ofatlar, kutilmagan hodisalar natijasida yetkazilgan zararlarni qoplash va ularni oldini olish maqsadida shakllangan pul resurslari fondlari bilan bog‘liq munosabatlarni ifoda etadi Sug‘urtadeganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to‘laydigan sug‘urta mukofotlaridan shuningdek sug‘urtalovchining boshqa mablag‘laridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug‘urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovonini(sug‘urta pulini)to‘lash yo‘li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi.Sug‘urta jamg‘armasi milliy iqtisodiyot zaxira jamg‘armasining muhim va o‘ziga xos bo‘g‘ini hisoblanadi, milliy iqtisodiyotni turli tasodiflardan moliyaviy himoya qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta ishi nihoyatda taraqqiy etgan bo‘lib, bu mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida sug‘urta badal (mukofot)lari hajmi o‘rtacha 8—12% ni tashkil etadi. Sug‘urtalash majburiy va ixtiyoriy shakllarda amalga oshiriladi. Majburiy sug‘urtaning o‘zi majburiy va majburiy davlat sug‘urtasiga bo‘linadi. Ularning har ikkalasi ham qonunchilik hujjatlariga muvofiq joriy etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. To'rayevich, I. A. (2025). Attracting Investments into the National Economy and their Management: Current Status. *Miasto Przyszłości*, *56*, 315-322.
2. AT, I. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO 'NALISHLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 319-326.
3. AT, I. (2024). IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA INVESTITSIYA QILISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 149-155.
4. AT, I. (2024). MINTAQALAR VA MA'MURIY HUDUDLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLOVCHI IQTISODIY TIZIM SIFATIDA. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(2), 249-255.
5. AT, I. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLASH STRATEGIYASINING IQTISODIY MEXANIZMLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(2), 256-263.
6. AT, I. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA UNI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLASHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(2), 241-248.
7. Turayevich, I. A. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNI BOSHQARISH YO 'LLARI. *Miasto Przyszłości*, *55*, 1464-1468.
8. AT, I. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI INVESTITSION LOYIHALARINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI VA O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(2), 306-314.
9. AT, I. (2024). TADBIRKORLIK FAOLIYATINING DAVLAT TOMONIDAN QO 'LLAB QUVVATLANISHI VA SOHAGA MINTAQALAR MIQYOSIDA INVESTITSIYA JALB QILISH SAMARADORLIGI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(2), 264-271.
10. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, *1*(5), 191-196.
11. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O 'Rni. *Gospodarka i Innowacje.*, *53*, 205-213.
12. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, *51*, 116-122.
13. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, *53*, 1231-1237.
14. EI, I. JAHON SAVDO KO 'RSATKICHLARI ISTIQBOLI VA BUNDA O 'ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI UCHUN IMKONIYATLAR.

15. EI, I. (2024). O ‘ZBEKISTONDA MAKROIQTISODIY KO ‘RSATKICHLAR O ‘ZGARISHLARINING 2022 VA 2023 YILLAR VA TARMOQLAR MIQYOSIDA TAHLILI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(3), 44-52.

16. EI, I. (2024). YALPI ICHKI MAHSULOT TUSHUNCHASI VA UNI HISOBLASHNING ASOSIY SHARTLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(3), 266-274.

17. Ibodulloyevich, I. E. (2024). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, *51*, 258-266.

18. EI, I. (2024). MAKROIQTISODIY KO ‘RSATKICHLARNNG O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(3), 275-281.

19. EI, I. (2024). BUXORO VILOYATIDA CHORVACHILIK TARMOG ‘I YASHILLASHISH HOLATI TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 165-171.

20. EI, I. (2024). MILLIY KOMPANIYALAR RAQOBATBARDOSHLIGI OMILLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(3), 168-174.

21. EI, I. (2024). EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(3), 175-182.

22. EI, I. (2024). QISHLOQ XO ‘JALIGI TARMOQLARINI YASHIL IQTISODIYOT ORQALI RIVOJLANTIRISH YO ‘LLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 172-180.

23. EI, I. (2024). KORXONALARDA RAQOBATBARDOSH EKSPORTNI YO ‘LGA QO ‘YISH VA MARKETING STRATEGIYALARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(2), 315-324.

24. EI, I. (2024). BUXORO VILOYATIDA QISHLOQ XO ‘JALIGI IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOG ‘I SIFATIDA. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 156-164.

25. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT VA UNING USULLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.

26. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Xizmat Ko ‘Rsatish Korxonalari Faoliyatlarining Samaradorligini Oshirishning Tashkiliy Mexanizmini Takomillashtirish. *Gospodarka i Innowacje.*, *46*, 608-615.

27. Ikromov, E. (2024). A METHODICAL APPROACH TO EVALUATING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, *3*(5), 180-188.

28. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF ETHICS AND CULTURE IN THE INTRODUCTION OF MODERN METHODS OF MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, *3*(5), 171-179.

29. Ibodulloyevich, I. E. (2024). MENEJMENTNING ZAMONAVIY USLUBLARINI JORIY ETISHDA ETIKA VA MADANIYATNING AHAMIYATI.

30. Ikromov, E. (2024). CLASSIFICATION OF LEADERSHIP STYLES IN THE MODERN MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, *3*(2), 615-621.

31. Ibodullayevich, I. E. (2024). Inqirozga Qarshi Choralar Dasturi Doirasida Kichik Biznes Va Xususiy Tadbirkorlik Subyektlarini Marketing Tizimi Asosida Rivojlantirish Muammolari. *Miasto Przyszłości*, *54*, 1495-1503.

32. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, *41*, 321-325.

33. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR.

34. Ikromov, E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, *2*(12), 1107-1111.

35. Ibodulloyevich, I. E. (2024). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, *51*, 258-266.

36. Bahodirovich, X. B. (2025). KORXONALARDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 72-78.

37. Bahodirovich, X. B. (2025). O’ZBEKISTONDA SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 47-53.

38. Bahodirovich, X. B. (2025). RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH AMALIYOTI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(5), 29-34.

39. Bahodirovich, X. B. (2025). SUG’URTA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 37-43.

40. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, *2*(12), 559-568.

41. Tohir o’g’li, M. T., & To’rayevna, S. N. (2024). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. *ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(14), 45-53.

42. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2025). IQTISODIYOTNI RAQAMLI KO ‘RSATISHDA SANOATNING O ‘RNI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 42-50.

43. To'rayevna, S. N. (2024). TEXNOLOGIYA DISKURSI VA YANGI MEDIA SIYOSIY IQTISODIYOTI.

44. To’rayevna, S. N. (2024). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION SIYOSAT VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.

45. To’rayevna, S. N. (2024). KORXONALARDA INNOVATSION LOYIHALARNI BAHOLASH TARTIBI VA TANLASH USULLARI.

46. Sodikova, N. (2024). THE MAIN DIRECTIONS OF PROVIDING THE BUSINESS SECTOR WITH QUALIFIED PERSONNEL. *Modern Science and Research*, *3*(1), 133-139.

47. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). PANDEMIYA SHAROITIDA O ‘ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTIDAGI TARKIBIY O ‘ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO ‘NALISHLARI VA ISTIQBOLDAGI IQTISODIY O ‘SISH PROGNOZLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 111-123.

48. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT TARMOQLARIDAGI TARKIBIY O ‘ZGARISHLAR VA ULARNI BAHOLASH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 101-110.

49. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O ‘ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASH YO ‘NALISHLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 245-254.

50. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O ‘ZBEKISTONDA EKSPORT-IMPORT KO ‘RSATKICHLARINING TAHLILI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(5), 151-159.

51. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). JAHON SAVDO KO ‘RSATKICHLARI ISTIQBOLI VA BUNDA O ‘ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI UCHUN IMKONIYATLAR. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 236-244.

52. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). АНАЛИЗ БЕЗРАБОТИЦЫ В РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАНАХ АФРИКИ И УЗБЕКИСТАНЕ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 122-128.

53. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВВП СТРАН ЕВРАЗИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОЮЗА (ЕАЭС) И УЗБЕКИСТАНА. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 149-156.

54. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УРОВНЯ ИНФЛЯЦИИ В СТРАНАХ ЕС И УЗБЕКИСТАНЕ. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 206-212.

55. Abidovna, A. S., & Sadilloevna, D. M. (2024). THE IMPACT OF MANAGEMENT PRACTICES ON INNOVATION IN ENTREPRENEURSHIP. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 232-237.

56. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). TEXNOLOGIK JARAYONNING TANNARXINI HISOBLASH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 17-23.

57. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH, XARAJATLARNI TAHLIL QILISH YONDASHUVLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(5), 47-53.

58. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2025). IQTISODIYOTNI RAQAMLI KO ‘RSATISHDA SANOATNING O ‘RNI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 42-50.

59. Azimov, B. F., Shadiyev, A. X., & Qudratova, G. M. (2025). YENGIL SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYALAR. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 15-22.

60. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). TANNARXNI HISOBGA OLISH VA UNI OPTIMALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(5), 40-46.

61. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). KORXONALAR MAHSULOTLARI TANNARXINI ANIQLASHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 54-61.

62. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). XARAJAT TUSHUNCHASI VA MAHSULOT TANNARXINI SHAKLLANTIRISH: NAZARIYA VA AMALIYOT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 79-85.

63. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). STANDARTLARGA MUVOFIQ XARAJATLARNI HISOBLASH USULI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 62-68.

64. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). BUYURTMA BO'YICHA XARAJATLARNI HISOBLASH USULI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 24-30.

65. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 259-265.

66. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARI INNOVATSION STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH JARAYONI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 193-198.

67. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARI INNOVATSION STRATEGIYALARINING IERARXIK TUZILISHI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 187-192.

68. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). TIKUVCHILIK SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION STRATEGIYALARINI QOLLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(2), 325-330.

69. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISHNING DOLZARBLIGI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(3), 183-187.

70. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTNING MOLIYAVIY REJASI VA UNING MUVAFFAQIYATGA TA'SIRI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, *2*(1), 8-14.

71. Raxmonqulova, N. O. (2025). HODIMLARNI RAG ‘BATLANTIRISH VA MOTIVATSIYA ORQALI ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, *2*(1), 29-35.

72. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOT MAQSADLARINI BELGILASH VA ULARGA ERISHISH BO ‘YICHA STRATEGIK REJALASHTIRISH JARAYONLARI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, *2*(1), 22-28.

73. Hakimovich, T. M. (2025). PRIORITIES FOR DEEPENING STRUCTURAL CHANGE IN THE ECONOMY. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *12*(01), 84-90.

74. Hakimovich, T. M. (2025). HUDUDLAR IQTISODIYOTINI JADAL RIVOJLANTIRISH BO'YICHA STRATEGIYALARNING QO'LLANILISHI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 129-136.

75. Bazarova, M. (2025). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Modern Science and Research*, *4*(1), 29-36.

76. Shadiyev, A. X. (2025). A MODERN APPROACH TO THE METHODOLOGY OF TEACHING ECONOMIC DISCIPLINES. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *12*(01), 134-139.

77. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(11), 153-159.

78. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KORXONA VA TASHKILOTLARDA PERSONALNI BOSHQARISH TIZIMI VA TAMOYILLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, *48*, 685-690.

79. Shadiyev, A. (2024). TA'LIM MENEJMENTI. TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI. *Modern Science and Research*, *3*(6).

80. Olimovich, D. I., & Khudoynazarovich, S. A. (2020). The cost-effectiveness of improving the quality of hotel services. *Academy*, (4 (55)), 40-42.

81. Khudoynazarovich, S. A. (2023). CREATING VALUE IN A TOURIST DESTINATION.

82. Akbarovna, N. N. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR. *Gospodarka i Innowacje.*, *54*, 107-112.

83. Akbarovna, N. N. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT METHODS IN AN INNOVATIVE ECONOMY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 407-412.

84. Akbarovna, N. N. (2024). MILLIY IQTISODIYOTNI TAHLIL QILISHDA QO 'LLANILADIGAN ASOSIY KO 'RSATKICHLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 278-283.

85. Azimov, B. F. (2024). MOLIYAVIY SEKTORDA STATISTIK KUZATISH VA UNING USULLARI. *XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI*, *1*(1), 28-31.

86. Жумаева, З. К. (2019). Современные Тенденции И Направления Развития Инвестиционной Деятельности В Регионах Республики Узбекистан. *Современные Проблемы Социально-Экономических Систем В Условиях Глобализации*, 148-152.

87. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, *3*(6).

88. Bustonovna, J. Z. (2024). JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZIMINI TAKOMILASHTIRISH.

89. Bustonovna, J. Z. (2024). IQTISODIY MUAMMOLARNI HAL QILISHDA BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING MUHIM SHARTLARI. *Miasto Przyszłości*, *55*, 1436-1440.

90. Джураева, М. С. (2025). АВТОНОМНЫЕ И ИНТЕГРИРОВАННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 135-141.

91. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). BARQAROR RIVOJLANISHGA O ‘TISH SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISHNI BOSHQARISH VA TASHKIL ETISH. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 307-312.

92. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO’LLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 93-99.

93. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALAR TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 284-292.

94. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQADA MEHNAT BOZORI. MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISHNING XUDUDIY ASOSLARI, AHOLI BANDLIGI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YOLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 307-309.

95. Bazarova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION. *Modern Science and Research*, *2*(12), 506-512.